O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL’A TUMAN KENGASHI QARORI

Tuproqqal’a tuman “Yoshlik” mahallasi Komiljon Otaniyozov ko‘chasi, 1-uy

2022 - yil 22 - avgust VI-62-126-12-218-K/22 Tuproqqal'a tumani hokimligi

Tuproqqal’a tumanidagi nomsiz ko‘chalarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik ob’yektlarni nomlash to‘g‘risidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi “Geografik ob’yektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risida”gi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish, ekspert kommisiyasining xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Resoublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi “Geografik ob’yektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risida”gi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert kommisiyasining 2022-yil 21-iyundagi 08-05152-sonli xati bilan taqdim qilingan xulosasi, viloyat hokimligining 2022-yil 1-iyundagi 311-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi yangidan nomlanayotgan ko‘chalarning nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (M.Satimov), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali (O.Qurbonov) ko‘chalarning yangidan nomlanishi munosabati bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Qurilish bo‘limi (J.Abbazov) mazkur ko‘chalarga yangi nom

yozilgan ko‘rsatgich belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayin asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, xotin-qizlar va yoshlar masalalari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikda ishlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Z.Matkarimov, Xalq deputatlari tuman Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Ibragimov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Salayev**

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tuman
Kengashining
2022 yil 22 avgustdagi
VI-62-126-12-218-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuproqqal’a tumanidagi nomsiz ko‘chalarga qo‘yilayotgan nomlar

T/r	Geografik ob’yektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik ob’yektning amaldagi nomi	Tuman komissayasi tomonidan berilgan takliflar
1	2	3	4	5
1	Yo‘lak ko‘cha	Nurobod MFY	Nomlanmagan	Xalqlar do‘stligi -1
2	Yo‘lak ko‘cha	Nurobod MFY	Nomlanmagan	Xalqlar do‘stligi- 2
3	Yo‘lak ko‘cha	Nurobod MFY	Nomlanmagan	Xalqlar do‘stligi-3
4	Yo‘lak ko‘cha	Nurobod MFY	Nomlanmagan	Xalqlar do‘stligi-4
5	Yo‘lak ko‘cha	Nurobod MFY	Nomlanmagan	Xalqlar do‘stligi-5
6	Yo‘lak ko‘cha	Yo‘ldosh Oxunboboyev MFY	Nomlanmagan	Buyuk ipak yo‘li-1
7	Yo‘lak ko‘cha	Yo‘ldosh Oxunboboyev MFY	Nomlanmagan	Buyuk ipak yo‘li-2
8	Yo‘lak ko‘cha	Sayapir MFY	Nomlanmagan	Buyuk ipak yo‘li-3
9	Yo‘lak ko‘cha	Sayapir MFY	Nomlanmagan	Buyuk ipak yo‘li-4
10	Yo‘lak ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Jiydazor-1
11	Yo‘lak ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Jiydazor-2
12	Yo‘lak ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Jiydazor-3
13	Yo‘lak ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Jiydazor-4
14	Yo‘lak ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Uzumzor-1
15	Yo‘lak ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Uzumzor-2
16	Ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Gulbog‘
17	Ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Charog‘on
18	Ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Sayhun
19	Ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Chuqursoy
20	Ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Nizomiy
21	Ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Karvon yo‘li
22	Ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Mehnatobod
23	Ko‘cha	Obod MFY	Nomlanmagan	Ustozlar
24	Ko‘cha	Muhabbat MFY	Nomlanmagan	Manzara
25	Ko‘cha	Muhabbat MFY	Nomlanmagan	Registon
26	Ko‘cha	Muhabbat MFY	Nomlanmagan	Subhidam
27	Ko‘cha	Saidlar MFY	Nomlanmagan	Umid

28	Ko‘cha	Saidlar MFY	Nomlanmagan	Hayot
29	Ko‘cha	Saidlar MFY	Nomlanmagan	Koshona
30	Ko‘cha	Yoshlik MFY	Nomlanmagan	Sarafroz
31	Ko‘cha	Yoshlik MFY	Nomlanmagan	Xushnavo